SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

ORZIBEKOV FAZILBEK ULUGBEKOVICH

MAZMUNIY GRAMMATIKADA SINTAKTIK PARADIGMALARNING SEMANTIK VA PRAGMATIK TADQIQI (ingliz va o‘zbek tillari asosida)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 811.111:811.512.133+81’37

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) degree in Philology

Orzibekov Fazilbek Ulugbekovich
Mazmuniy grammatikada sintaktik paradigmalarning semantik va pragmatik tadqiqi (ingliz va o‘zbek tillari asosida) 3

Орзибеков Фазилбек Улугбекович
Семантико-прагматическое исследование синтаксических парадигм в содержательной грамматике (на материале английского и узбекского языков) 25

Orzibekov Fazilbek Ulugbekovich
Semantic and pragmatic study of syntactic paradigms in content grammar (based on English and Uzbek languages) 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 55

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

ORZIBEKOV FAZILBEK ULUGBEKOVICH

MAZMUNIY GRAMMATIKADA SINTAKTIK PARADIGMALARNING SEMANTIK VA PRAGMATIK TADQIQI (ingliz va o‘zbek tillari asosida)

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Fil6837 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent Kimyo xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdchti.uz hamda “Ziyonet” Axborot ta’lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Turobov Abdurayim Malikovich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Xushmurodova Shaxnoza Shaymankulovna filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “11” dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (67342 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “20” noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “20” noyabr dagi №74 -raqamli reyestr bayonnomasi).

B.A. Xolikov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida sintaksisga taalluqli tadqiqotlar doirasi kundan-kunga kengayib, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarining o‘rganilishi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Til birliklarining tizimli tuzilishini semiotik yondashuv asosida chuqur tahlil qilish, ularning nutqiy faoliyatda kommunikativ vazifalarni bajarishdagi o‘rnini aniqlash bugungi tilshunoslik tadqiqotlarining asosiy masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Xususan, mazmuniy grammatikada sintaktik paradigmalarni o‘rganish til tizimi birliklari o‘rtasidagi bog‘liqliklarni hamda ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini ochib berish imkonini yaratadi. Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi zamonaviy tilshunoslikda hukmron bo‘lgan sintaktik paradigmalarning semantik va pragmatik jihatdan o‘rganilishi bilan bog‘liq. Shuningdek, kognitiv, funksional va diskursiv yondashuvlarning uyg‘unligi bu sohaning yanada rivojlanish istiqbollarini belgilaydi. Mazkur ish mazmuniy grammatikada sintaktik paradigmalarning semantik va pragmatik tahliliga qaratilgan.

Dunyo tilshunosligida til birliklarining paradigmatik munosabatlari nutq jarayonida o‘zaro almashinuv va semantik o‘zgarishlar orqali namoyon bo‘lib, til tizimining muhim ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. Muhimi, ingliz tilidagi sintaktik paradigmalar tuzilishi, semantikasi va pragmatikasi mazmuniy grammatikaning nazariy asoslari bugungi kunda tilshunoslikning eng dolzarb sohalaridan biriga aylandi. Mazmuniy grammatikaning nazariy asoslarini, sintaktik paradigmalarning uch komponentli tuzilishini, ularning semantik ifoda vositalarini hamda pragmatik shartlarini yagona tahliliy tizimda birlashtirish, mazmuniy grammatika nazariyasini tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi.

Ingliz tili global aloqa tili sifatida keng tarqalgan bo‘lib, u bilan o‘zbek tilining grammatik tizimini taqqoslab o‘rganish nafaqat kontrastiv tilshunoslik, balki tarjima nazariyasi, kompyuter lingvistikasi va til o‘qitish metodikasi uchun ham muhim omildir. Mazkur dissertatsiyada aynan mazmuniy grammatika nuqtayi nazaridan sintaktik paradigmalarning semantik va pragmatik o‘ziga xosliklarini ikki til (ingliz va o‘zbek) misolida tadqiq etish orqali til tizimi va nutq o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning maxsus o‘rganilmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi. Oliy ta’limga e’tibor davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanganligi O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasida“ ta’lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish”[1] sifatida alohida ta’kidlangan. Zamonaviy tilshunoslikda hukmron bo‘lgan sintaktik paradigmalarning semantik va pragmatik jihatdan tadqiq etish masalasi ham o‘z yechimini kutayotgan dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Mazmuniy grammatikada sintaktik paradigmalarning semantik va pragmatik jihatlarining maxsus o‘rganilmaganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

[1] Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – B. 39.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarorlari, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va axborot texnologiyalari rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shaklantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mazmuniy grammatikaga asos bo‘lgan eng dastlabki g‘oyalar XIX asrga borib taqaladi. V. fon Humboldtning tilni “energeia” inson tafakkuri va dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq dinamik jarayon sifatida talqin qiluvchi qarashi mazmuniy yondashuvning falsafiy asosini yaratgan, biroq mazkur qarash aniq sintaktik tuzilmalar bilan bevosita bog‘lanmagan[2]. Keyinchalik L.Teniyerning “dependency grammar” nazariyasi sintaktik birliklarning semantik asosini o‘rganishning muhim metodologik yo‘lini ishlab chiqqan, ammo paradigmatik almashinuv masalasini asosiy tadqiqot obyekti sifatida ajratmagan. Kommunikativ-mazmuniy ajratishning dastlabki nazariy asoslarini shakllantirgan bo‘lsa-da, ushbu yondashuv paradigmalar tizimi darajasiga ko‘tarilmagan. L.Teniyer sintaktik birliklarning semantik asosini tahlil qilishga alohida urg‘u bergan[3]. Bu yondashuvda grammatik strukturaviy bir-biriga bo‘ysunuvchi semantik munosabatlar orqali bog‘langan holda qaraladi. Bundan tashqari, nemis tilshunosi G.fon Gabelents o‘zining “Die Sprachwissenschaft, ihre Aufgaben, Methoden und bisherigen Ergebnisse” (1891) asarida gapning “psixologik subyekti” va “psixologik predikati” tushunchalarini ilgari surib, gap tarkibidagi mazmuniy-kommunikativ ajratishning eng dastlabki nazariy asoslaridan birini yaratgan[4].

---

[2] Гумбольдт В. фон Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 397 с.; Humboldt W.·On Language: The Diversity of Human Language-Structure and its Influence on the Mental Development of Mankind (Texts in German Philosophy) – New York : Cambridge University Press. 1988. – P. 296.

[3] Теньер Л. Основы структурного синтаксиса**.** – Москва, Прогресс, 1988. – 656 с.; Степанов Ю.С. Основы языкознания. – Москва: Просвещение, 1966. – 272 с.; Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. 2-е издание, исправленное. «Языки русской культуры». – Москва 1999. – 905 с.; Бабайцева В.В., Инфантова Г.Г., Николина Н.А., Печникова В.С., Чеснокова Л.Д. Современный русский язык. Теория. Анализ языковых единиц. В двух частях. Часть II: Морфология. Синтаксис. – Москва: Академия**,** 2006. – 624 с.

[4] Gabelentz G. von der. Die Sprachwissenschaft, ihre Aufgaben, Methoden und bisherigen Ergebnisse (1891). – Berlin: Language Science Press, 2016 – P. 601.

Mazmuniy grammatika masalalari jahon tilshunosligida Y.S. Stepanov konseptual tuzilmalarning grammatik shakllar bilan uyg‘unlashuvini ochib bergan. D.S. Uort, Z. Xarris, N. Xomskiy, R. Zimek, B. Grabe, Y.S. Kubryakova, N.Y. Shvedova, Y.M. Kostinskiy va I.P. Raspopovlarning ishlarida sintaktik paradigma tushunchasi turli: strukturaviy, transformatsion, generativ, funksional nuqtayi nazardan yoritilgan. T.V. Xrebtova esa grammatikaning “semantik asoslangan tasnifi”ni ilgari surgan. Ushbu tadqiqotlarning kuchli tomoni paradigmaning grammatik-strukturaviy tavsifi, asosiy cheklovi esa paradigmaning semantik markazi va pragmatik almashuv mezonlarini yaxlit tizim sifatida taqdim etmaganligidir[5]. Jumladan, Y.S.Stepanov til tizimida konseptual tuzilmalarning grammatik shakllar bilan qanday uyg‘unlashishini ochib bergan. T.V.Xrebtova esa grammatikaning “semantik asoslangan tasnifi”ni ilgari surib, gaplar va so‘z birikmalarining semantik modellari asosida tasniflashni taklif etgan.

Mazmuniy grammatika g‘oyalari o‘zbek tilshunosligida ham o‘z aksini topdi. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Mamajonov, H. Ne’matov, R. Sayfullayeva, M. Qurbonova, A. Ahmedov, S. Solixo‘jayeva, D. Lutfullayeva, F. Yo‘ldoshev, G. Toirova va boshqalarning ishlari mazmuniy-kommunikativ yondashuvni o‘zbek tili materiali asosida sinovdan o‘tkazgan. Ushbu izlanishlar o‘zbek tilining sintaktik-semantik xususiyatlarini ochib berish jihatidan qimmatlidir, biroq ular o‘zbek tili doirasida qolib, ingliz tili bilan chog‘ishtirma-mazmuniy tahlilni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ymagan.

Bu tahlillar quyidagi ilmiy bo‘shliqni belgilaydi. Mazmuniy grammatika nazariyasi, sintaktik paradigmatika va nutqiy aktlar nazariyasining metodologik yutuqlari yagona chog‘ishtirma tahliliy tizim doirasida birlashtirilmagan. Ingliz va o‘zbek tillari sintaktik paradigmalarining semantik markazi, ifoda vositalari va pragmatik almashuv mezonlari tizimli holda tadqiq etilmagan. Mazkur dissertatsiya aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.[6] Xususan, A.Berdialiyev nutq birliklarining paradigmatik va sintagmatik ahamiyatini[7], N.Turniyozov nutq

[5] Worth D.S. The role of transformations in the definition of syntagmas in Russian and other Slavic languages. V International congress of slavists. – Sofia, 1963.; Харрис З. Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре // Новое в лингвистике, вып. 2. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1962. – 685 с. (528-637); Хомский Н. Синтаксические структуры. – М., 1962. – 136 с.; Зимек Р. Семантический аспект синтаксической трансформации // Ceskoslovenska rusistika, XI, 1966. №. 2. – С. 66-73.; Распопов И.П. Несколько замечаний о синтаксической парадигматике // Вопросы языкознания, 1969. № 4. – С. 92-100.; Костинский Ю.М. Вопросы синтаксической парадигматики // Вопросы языкознания, 1969. № 5. – С. 106-114.; Грабе В. Общее значение синтаксической конструкции и трансформация // Ceskoslovenska rusistika, XI, 1996. № 2. – С. 145-149.; Кубрякова Е.С. Языковое сознание и сознание через язык: парадигмы исследования. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С. 560.; Шведова Н.Ю. Парадигматика простого предложения в современном русском языке // Русский язык. Грамматические исследования. – М.: 1967. – С. 3-77.

[6] Бердиалиев А. Ўзбек тили синтактик парадигматикаси асослари. – Тошкент, 1991. – 47 б.; Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент, 1995. – 230 б.; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 90 б.; Турниёзов Н. Назарий грамматикадан очерклар. – Самарқанд, 1998. – 48 б.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008, – 286 б.; Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоцио-прагматик таҳлил асослари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд, 2007. – 40 б.; Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. – Тошкент, 1999. – 55 б.; Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент, 1992. – 292 б.; Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. ДДА. Тошкент, 2001. – 39 б.; Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Монография. – Тошкент, 2013. – 176 б.; Lutfullayeva D. Gapning semantik-sintaktik qurilish qolipi va propozitiv strukturasi o‘rtasidagi munosabat: Filol. fan. dok. …dissertatsiyasi. – Toshkent. 2005. – 269 b.; Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент: ТДПИ., 1989. – 125 б.

[7] Бердиалиев А. Ўзбек тили синтактик қурилиши асосининг парадигматик тизими. – Хўжанд, 2019. – 80 б.

birliklarining derivatsion jihatlarini[8], M.Hakimov nutq birliklarining pragmatik ahamiyatini o‘rganishda semantik-paradigmatik tahlilni taklif etgan bo‘lsa[9], Sh.Safarov tilning kognitiv xarakterini belgilovchi vositalarni grammatika doirasida tadqiq etishni ilgari surdi[10].

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Toshkent Kimyo xalqaro universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari” mavzusi yo‘nalishida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi. Ingliz va o‘zbek tillari materiali asosida sintaktik paradigmalarning semantik markazini, mazmun ifodalash mexanizmlarini va pragmatik voqelanish shartlarini mazmuniy grammatika nuqtayi nazaridan yaxlit tizim sifatida tadqiq etish hamda ikki tildagi umumiy va farqli jihatlarni chog‘ishtirma-tipologik jihatdan asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

mazmuniy grammatika nazariyasining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish hamda sintaktik paradigmaning grammatik birlik sifatidagi maqomini nazariy jihatdan asoslash;

sintaktik paradigmaning uch komponentli tuzilishini: yadro, variantlar va almashuv mezonlarini, ingliz va o‘zbek tillari materialida aniqlash hamda ularning tasnifini ishlab chiqish;

sintaktik paradigmalarning semantik markazini hamda mazmunning so‘z tartibi, urg‘u, zamon va modallik vositalari orqali ifodalanishini ingliz va o‘zbek tillari qiyosida tahlil qilish;

sintaktik paradigmalarning nutqiy aktlarda voqelanishini, pragmatik omillarning ularning tanloviga ta’sirini hamda paradigmalararo bog‘lanishning kommunikativ mexanizmlarini aniqlash.

Tadqiqot obyektini ingliz va o‘zbek tillarining grammatik tizimlarida mavjud bo‘lgan sintaktik paradigmalar tashkil etadi.

Tadqiqot predmetini ingliz va o‘zbek tillaridagi sintaktik paradigmalarning semantik markazi va pragmatik voqelanishi, ularning ma’no tuzilishi, mazmun ifodalash usullari, nutqiy aktlardagi vazifalari va ularning nutqiy faoliyatda voqelanishi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda struktur tahlil metodi sintaktik paradigmaning ichki uch komponentli tuzilishini aniqlash uchun; sintaktik derivatsiyaning applikativ va transformatsion usullari paradigma ichidagi shakl-mazmun almashinuvlarini, ya’ni bir markaziy ma’no atrofida sintaktik variantlarning hosil bo‘lishini asoslash uchun; semantik-uslubiy tahlil metodi paradigma variantlarining ma’no-uslub farqlarini hamda denotativ, konnotativ va presuppozitsion qatlamlarini aniqlash uchun; distributiv tahlil metodi sintaktik birliklarning nutqiy muhitdagi qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlash uchun qo‘llangan. Ushbu metodlar dissertatsiyada nazariy-tavsifiy tadqiqotdan misollar tahliliga,

[8] Турниёзов Н.Қ. Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш. – Самарқанд, 1990. – 60 б.
[9] Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Монография. – Тошкент, 2013. – 176 б.
[10] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006. – 92 б.

undan esa chog‘ishtirma umumlashtirishga o‘tish tartibida ketma-ketlikda tatbiq etilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mazmuniy grammatika doirasida sintaktik paradigmaning uch komponentli tuzilmasi yadro (asosiy semantik-sintaktik birlik), variantlar (shakliy-tarkibiy modifikatsiyalar) va almashuv mezonlari (nutqiy vaziyatga bog‘liq tanlov qonuniyatlari) ingliz va o‘zbek tillari materiali asosida yaxlit tizim sifatida modellashtirilgan;

sintaktik paradigmalarning semantik ifoda vositalari so‘z tartibi, urg‘u, zamon va modallik ko‘rsatkichlari ikki til qiyosida bir markaziy ma’no atrofida turli sintaktik variantlarni hosil qilish mexanizmi sifatida asoslangan hamda ularning denotativ, konnotativ va presuppozitsion semantik qatlamlarga bog‘lanishi ko‘rsatilgan;

sintaktik paradigmalarning nutqiy aktlarda voqelanishi tahlili orqali pragmatik omillarning ijtimoiy, madaniy, psixologik va diskursiv paradigmatik tanlovga ta’sir qonuniyatlari aniqlangan hamda paradigmalar funksional-pragmatik mexanizm ekanligi ingliz va o‘zbek tillari materiali misolida tasdiqlangan;

sintaktik paradigmalarning kommunikativ voqelanishida ikki til o‘rtasidagi tipologik farq aniqlanib, ingliz tilida paradigmatik tanlov mantiqiy izchillik va axborot soddaligi tamoyillariga, o‘zbek tilida esa nutqning ifodaviy boyligi, matnga moslashuvchanligi va milliy-madaniy mentalitet omillariga tayanishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mazmuniy grammatika nutqiy faoliyat doirasida sintaktik paradigmalarning semantik va pragmatik xususiyatlari haqida amaldagi ilmiy qarashlarni boyitadi, til tizimi va uning kommunikativ mexanizmlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi, qo‘yilgan muammolarni tadqiq etish orqali olingan xulosa va takliflar hozirgi ingliz va o‘zbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy ma’lumot berishi, ingliz va o‘zbek tillari sintaksisi bo‘yicha tadqiqotlar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi, grammatika, sintaksis, semantika va pragmatika fanlarini o‘qitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillari sintaksisi, korpus lingvistikasi, zamonaviy tilshunoslik, kompyuter tilshunosligi, semantika va pragmatika bilan bog‘liq fanlardan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish uchun mazmuniy sintaksisning shakllanishi haqida ham material va manba vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda foydalanilgan ilmiy yondashuv va usullar, muammoning aniq qo‘yilishi, xulosalarning qat’iyligi, shuningdek, tadqiqot yo‘nalishi va tadqiqot metodlari, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, shuningdek, ingliz va o‘zbek tillari lug‘atlaridan olinganligi, tahlillar, ilmiy-amaliy va ilmiy nazariy xulosalarning tasnifiy, tasviriy va qiyosiy-tarixiy metodlari bilan asoslanganligi, tadqiqotning himoyaga olib chiqilayotgan holatlari zamonaviy usullar tatbiqida yechilganligi, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi va bularning vakolatli muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tilshunosligini, jumladan, sintaktik paradigmalarning semantik va pragmatik tahlili natijalari ingliz va o‘zbek tillarini o‘rgatishda foydalanilishi mumkin bo‘lgan o‘quv-uslubiy materiallarni boyitadi, dissertatsiyaning tadqiq usullaridan tilshunoslikning boshqa bo‘limlarini ilmiy jihatdan o‘rganishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ilmiy xulosalar va muhim nazariy umumlashmalardan oliy ta’lim muassasalarining filologiya fakultetlarida, filologik yo‘nalishdagi institutlarda ingliz va o‘zbek tillari sintaksisi, korpus lingvistikasi, zamonaviy tilshunoslik, kompyuter tilshunosligi, semantika va pragmatika kabi va akademik litseylarda maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, ma’ruza matnlari tayyorlashda manba vazifasini bajaradi, shu fanlardan yangi darslik va o‘quv qo‘llanmalarni yaratish hamda takomillashtirishda amaliy manba va nazariy asos vazifasini o‘taydi, shuningdek, ilmiy xodim va tadqiqotchilar uchun nazariy va amaliy muhim manba bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Til birliklarining tizimli tuzilishini semiotik yondashuv asosida chuqur tahlil qilish, ularning nutqiy faoliyatda kommunikativ vazifalarni bajarishdagi o‘rnini aniqlash bilan sintaksis tizimining nazariy asoslarini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

mazmuniy grammatika doirasida sintaktik paradigmaning uch komponentli tuzilmasi yadro (asosiy semantik-sintaktik birlik), variantlar (shakliy-tarkibiy modifikatsiyalar) va almashuv mezonlari (nutqiy vaziyatga bog‘liq tanlov qonuniyatlari) ingliz va o‘zbek tillari materiali asosida yaxlit tizim sifatida modellashtirilgan ilmiy-nazariy natijalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2021-2023-yillarda bajarilgan “Qoraqalpoq folklorida olamning etnolingvistik tasviri” mavzusida bajarilgan fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 21-sentabrdagi 84/1-son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha doirasida olib borilgan tadqiqotlarning tahlil qismida mazmuniy grammatikaning ish mexanizmlarini tashkil etishi aniqlandi;

sintaktik paradigmalarning semantik ifoda vositalari so‘z tartibi, urg‘u, zamon va modallik ko‘rsatkichlari ikki til qiyosida bir markaziy ma’no atrofida turli sintaktik variantlarni hosil qilish mexanizmi sifatida asoslangan hamda ularning denotativ, konnotativ va presuppozitsion semantik qatlamlarga oid ilmiy qarashlar va xulosalardan uni xalqarolashtirish maqsadida 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasining amaliy qismida foydalanilgan (SamDCHTIning 2026-yil 26-yanvardagi 351/02-son ma’lumotnomasi). Natijada mazmuniy grammatika xususidagi ilmiy nazariy tadqiqotning ingliz va o‘zbek tili materiallari asosida ilk bor yoritilishi bilan tilshunoslikning mazkur sohasini xalqarolashtirishga katta hissa qo‘shilgan;

sintaktik paradigmalarning nutqiy aktlarda voqelanishi tahlili orqali pragmatik omillarning ijtimoiy, madaniy, psixologik va diskursiv paradigmatik tanlovga ta’sir

qonuniyatlari aniqlangan hamda paradigmalar funksional-pragmatik mexanizm ekanligiga oid ilmiy qarashlari va xulosalaridan Qarshi davlat universitetida 2021-2023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-3181 “Reinforcing English Language compotence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasining nazariy qismida foydalanilgan (QarDUning 2025-yil 23-dekabrdagi 04/7378-son ma’lumotnomasi). Natijada pragmatik hodisasining nutqiy faoliyatda paradigmalararo bog‘lanishi zamonaviy yo‘nalishda tahlil etishga erishilgan;

sintaktik paradigmalarning kommunikativ voqelanishida ikki til o‘rtasidagi tipologik farq aniqlanib, ingliz tilida paradigmatik tanlov mantiqiy izchillik va axborot soddaligi tamoyillariga, o‘zbek tilida esa nutqning ifodaviy boyligi, matnga moslashuvchanligi va milliy-madaniy mentalitet omillariga tayanishiga doir tahliliy fikrlar va nazariy xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Samarqand viloyati teleradiokanali” Dmning Ta’limga oid turkum ko‘rsatuv va eshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda manba sifatida qabul qilingan bo‘lib xususan 2026-yil 05-mart kunidagi “Samarqand FM 105.2” radiokanalining navbatdagi son ssenariylarini tayyorlashda dissertatsiyasi ilmiy natijalaridan foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “Samarqand viloyati Teleradiokanali” Davlat muassasasining 2026-yil 6-martdagi 01-07/72-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv va eshittirishlarining ilmiy saviyasi va ahamiyati oshdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta respublika hamda 3 ta xalqaro konferensiyada ma’ruza qilinib, aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusiga oid jami 13 ta ilmiy ish nashr etilgan bo‘lib, shundan, O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta maqola ilmiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, asosiy uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon qilingan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, erishilgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot ishi natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Mazmuniy grammatika va sintaktik paradigmalarning nazariy asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bob uch fasldan tarkib topgan. Bobning *“Mazmuniy grammatika tushunchasi va nazariy asoslari tadqiqi”* deb nomlangan faslida til inson tafakkurining shakllanishi va rivojlanishini

ta’minlovchi kuch ekanligi ta’kidlangan. Tilga kognitiv yondashuv ham tilni inson ongidagi mental strukturalar bilan uzviy bog‘liq holda tushuntiradi. Demak, til taraqqiyotida mazmun, mazmuniy grammatika va sintaktik semantika hodisasi doimo birlamchi o‘rinda turishi tilshunos olimlarda uzoq vaqtlardan beri qiziqish uyg‘otib kelayotganligi, dunyoning turli tillari materiallarida bu bo‘yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilib kelinayotgan bo‘lsa-da, tilshunos olimlarning bu hodisaga bo‘lgan qiziqishi susaymaganligi alohida qayd etib o‘tilgan, chunki grammatikani mazmun va vazifaga asoslangan usullar orqali o‘rganish kerakligi ehtiyoji paydo bo‘ldi. Aynan shunday ehtiyojdan kelib chiqqan holda “mazmuniy grammatika” tushunchasi tilshunoslik nazariyasida nutqiy faoliyatni shakllantiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan mazmuniy grammatikani sintaktik paradigmalar jihatdan tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tilshunosligida mazmuniy grammatikaga antropotsentrik yondashuv ko‘plab tilshunos olimlarning diqqat markazida bo‘lib turibdi. An’anaviy grammatikadan farqli o‘laroq mazmuniy sintaksisda gapning tuzilishi emas, balki unda ifoda etilgan mazmun asosiy rol o‘ynaydi. Propozitsiya ana shu semantik invariantni belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan, turli sintaktik shakllarda ifoda etilgan gaplar bir propozitsiyani tasvirlashi mumkin va bu sintaktik variantlilik hamda semantik davomiylik tamoyilini ko‘rsatadi. Shu sabab ham propozitsiya tushunchasi orqali gaplar ichidagi bo‘laklar emas, balki ularning semantik o‘zaro munosabati tahlil qilinadi. Bu esa mazmuniy sintaksis nazariyasining mustahkamlanishida muhim o‘rin tutadi. Natijada, grammatikani faqat tarkibiy tizim deb emas, balki faol semantik model deb baholashga olib keladi. Sintaktik paradigmalarning semantik va pragmatik jihatdan ilmiy tadqiq etilishi muhim bo‘lishiga qaramasdan, mazkur masala qardosh bo‘lmagan tillar, ya’ni ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida juda kam qiyoslab o‘rganilgan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu faslda bu sohadagi tilshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari o‘rganilib, ularga munosabat bildirilgan.

Bobning *“Sintaktik paradigmalarning grammatik tuzilishi va tasnifi”* deb nomlangan ikkinchi faslida tilshunoslikda “paradigma” tushunchasi asosan morfologik birliklar tizimi bilan bog‘liq tarzda qo‘llanib kelingan bo‘lsa-da, keyingi davrlarda bu tushuncha sintaktik birliklarga ham tatbiq etila boshlangani ta’kidlanadi. Paradigma – bu biror grammatik birlikning turli nutqiy faoliyat va vazifalarda almashinish imkoniyatiga ega variantlar to‘plami ekanligi yoritib berilgan.

Shuningdek, F.de Sossyur til birliklarining paradigmatik munosabati (Sossyur terminologiyasida assotsiativ munosabat) ketma-ketlik qoidasiga bo‘ysunmasligini, mazkur munosabat muayyan uyushma a’zolari o‘rtasida ro‘y berishini qayd etadi va shu munosabatdagi til birliklari ongimizda alohida guruhlar tarzida mavjud bo‘lishini ta’kidlaydi. Har qanday so‘z u yoki bu tarzda fikran o‘zi bilan bog‘lanadigan narsani xotiraga keltirishi mumkin[11]. F.de Sossyur paradigmatik munosabatni ketma-ket nutq oqimida emas, balki ongda til birliklarining bir-biri

[11] Соссюр Ф. Де Умумий тилшунослик курси. Француз тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. – Тошкент, 2019. – Б. 145.

bilan aloqadorlikda mavjudligi tarzida tushuntiradi. Assotsiativ munosabat til birliklarining bir tizim doirasida almashtirish imkoniyati asosida yuzaga keladigan sintaktik munosabatdir. Masalan: *kitob, daftar, qalam* – so‘zlari bir-birining o‘rnida paydo bo‘lishi mumkin bo‘ladi. Fe’llar: *kelmoq, bormoq, yurmoq* – har biri harakat bildiradi, ongimizda bir toifadagi birliklar sifatida jamlanadi.

Bu esa paradigmatik munosabat semantik va psixolingvistik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Keyinchalik til birliklarining o‘zaro munosabatlariga katta e’tibor berilib, “paradigmatik munosabat” yoki “paradigmatika” atamasi bilan nomlana boshlandi[12]. Bizningcha, bu bilan to‘liq qo‘shilish mumkin, zero, “paradigmatik munosabat” yoki “paradigmatika” atamasi bir-biri bilan bevosita bog‘liqdir. V.Brendall asarlarida paradigmatik munosabatlar tilning ichki tizimi sifatida qaraladi. U til birliklarining bir-biri bilan ketma-ketlikda emas, balki tanlov asosida bog‘lanishini paradigmatik yondashuv deb hisoblaydi. V.Brendallning bu qarashi Ferdinand de Sossyurning qarashlari bilan hamohang.

V. Brendal paradigmatik munosabat deb ma’lum bir birlik o‘rnida almashtirilishi mumkin bo‘lgan birliklarni ta’kidlaydi. XX asrning ko‘zga ko‘ringan tilshunoslaridan biri bo‘lgan amerika tilshunosi D. Uort ham tilshunoslikda antropotsentrik paradigma g‘oyalarini mustahkamlashda ko‘p ishlarni amalga oshirib, inson va til o‘rtasidagi mustahkam munosabatlarga urg‘u berib, tilni shaxssiz tasavvur etib bo‘lmaydi, degan fikrni bildirgan.

Sintaktik paradigmatika tushunchasining mohiyati implitsit tarzda aslida Z. Xarris va N. Xomskiylar tomonidan qayd etilgan edi. Ular gapning ham, so‘zlarda bo‘lganidek, “o‘zagi” bo‘ladi, degan g‘oyani olg‘a suradilar.

Ammo sintaktik paradigmatika tushunchasi tom ma’noda tadqiqotlar kun amerikalik tilshunos D. Uort tomonidan kiritildi. Uort sintaktik paradigmatikani sintaktik tuzilmalar o‘rtasidagi transformatsion munosabatlar asosida izohlaydi[13]. Paradigma tushunchasi dastlab morfologik darajada (masalan: boraman, bording, bordi, boramiz kabi fe’l shakllari) qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik bu tushuncha sintaktik sathga ham tatbiq etildi. D. Uortning qayd etishiga ko‘ra, sintaktik birliklar faqat sintagmatik munosabat orqali emas, balki paradigmatik munosabat asosida ham shakllanadi. Gaplar tizimi muqobil variantlar, tuzilish darajasi, uslubiy vazifalar kabi elementlar orqali paradigmaga uyg‘unlashadi. D. Uort tomonidan ilgari surilgan sintaktik paradigmatika tushunchasi – transformatsion grammatikaning paradigmatik asoslarini kengaytirish uchun muhim metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa sintaktik paradigmatika – hozirgi kunda kognitiv, funksional va pragmatik grammatikalarda qo‘llanayotgan metodologik yondashuvlarning nazariy manbalaridan biri sifatida ahamiyatga ega. Bunda muayyan gaplar transformalarining bir-biri bilan sintaktik sinonimlar maqomida kelishi olim uchun katta imkon yaratdi.

---

[12] Брендаль В. Структуральная лингвистика // Звегинцев В.А. История языкознания. Часть 2. – 1965. – С. 207-209.

[13] Worth D.S. The role of transformations in the definition of syntagmas in Russian and other Slavic languages // “American contributions to the V International congress of slavists”, – Sofia, 1963. – P. 361-383.

Bu haqda taniqli tilshunos olim A. Berdialiyev shunday yozadi: Tilning fonema, morfema va so‘z yasalishi sathlariga xos birliklari haqidagi paradigmatik qarashlar va ularning xulosalari keyinchalik sintaktik sath hodisalari uchun ham tatbiq etila boshlandi[14]. Ushbu fikr tilshunoslikda paradigmatik munosabat tahlilining kengayib, morfologik sathdan sintaktik sathga qarab rivojlanganidan dalolat beradi. Dastlab paradigmatik yondashuv fonema darajasida fonemalarning oppozitsiya asosida tizimga kirishishi orqali, keyinchalik morfema va so‘z yasalishi sathlarida morfemalarning almashinish, turlanish imkoniyatlari orqali shakllangan edi. Paradigma deyilganda biror birlik o‘rnini egallay oladigan boshqa birliklar tushuniladi. Ushbu mexanizm morfologiyada aniqroq ko‘rinadi: masalan, fe’lning shaxs-son paradigmasi yoki otning kelishik paradigmasi kabi. Sintaktik paradigmatika tushunchasi aynan shu asosda ya’ni gap modellari o‘rtasidagi almashtirish va oppozitsion munosabatlarni ko‘rsatish zarurati tufayli shakllandi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, sintaktik sathda paradigma faqat formal tuzilmalarning variantligi bilan cheklanmaydi; u ayni paytda mazmun, funksional vazifa va matnual moslashuvga ham bog‘liq bo‘ladi. Bu esa sintaktik paradigmatikaning morfologik paradigmalarga nisbatan murakkabroq va ko‘p qatlamli ekanligini anglatadi. A. Berdialiyevning ushbu mulohazasi paradigmatik yondashuvning tilshunoslikda bosqichma-bosqich rivojlanganini va sintaktik tahlil doirasiga ham muvaffaqiyatli tatbiq etilganini ko‘rsatadi.

Mazkur bobning uchinchi fasli *“Sintaktik paradigmalarning til tizimida tutgan o‘rni tadqiqi”* deb nomlanib, ushbu faslda Sintaktik paradigma lingvistik tizim sifatida til sistemasining tarkibiy qismi va mazmunini ifodalovchi asosiy unsurlardan biri hisoblanadi. Praga tilshunoslik maktabi (XX asrning 1-yarmi) tuzilish jihatdan funksional tilshunoslikning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan ilmiy maktabdir. R. Zimek, V. Grabe, P. Adamets kabi tilshunoslar ham katta yutuqlarni qo‘lga kiritdilar. Ular ham sintaktik paradigmatika tushunchasini gapning transformatsion metod asosidagi tahlili bilan uzviy bog‘laydilar va transformatsion paradigma tilning nutqda qo‘llanilishini ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri ekanligini alohida ta’kidlaydilar[15]. Ular tilni statik tarzdagi turg‘un hodisa emas, balki dinamik tarzda rivojlanib borayotgan ijtimoiy hodisa tarzida talqin qilganlar. Sintaktik paradigmatika tushunchasi aynan shunday yondashuv asosida shakllangan.

O‘tgan asrning 50-yillarida deskriptiv tilshunoslik vakillari tomonidan generativ grammatika masalasi tadqiqotlar kun tartibiga qo‘yildi. Generativ grammatikaning bosh muammosi esa transformatsion nazariya bilan bevosita bog‘lanadi. Boshqacha aytganda, transformatsion nazariya, asosan, sintaktik strukturalar doirasida qo‘llaniladi.

Praga tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan ilgari surilgan transformatsion yondashuv va uning asosida shakllangan sintaktik paradigmatika tushunchasi gaplarning tuzilish va vazifalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunishga xizmat qiluvchi muhim nazariy vositadir. Ular sintaktik birliklarni paradigmatik tizimda o‘rganib,

[14] Бердиалиев А. Ўзбек тили синтактик қурилиши асосининг парадигматик тизими. – Хўжанд, 2019. – 24 б.
[15] Зимек Р. Семантический аспект синтаксической трансформации // Ceskoslovenska rusistika, XI, 1966. № 2. – С. 78.

tilning kommunikativ imkoniyatlarini aniqlashda yangi yo‘nalish ochganlar. Bu esa hozirgi pragmatik va funksional yondashuvlarga zamin yaratgan.

Y.M. Kostinskiyning to‘g‘ri qayd etishiga ko‘ra, sintaktik paradigmatika tushunchasining ilmiy iste’molga kiritilishi tom ma’noda transformatsion metod bilan bevosita bog‘liqdir. Zotan, transformatsion grammatikada paradigma tushunchasi shaklan turlicha, mazmunan esa mushtarak bo‘lgan sintaktik qurilmalarga nisbatan qo‘llaniladi[16].

Ko‘rinadiki, sintaktik paradigmaning funksional modeli tilning o‘zgaruvchan, nutqiy faoliyatga moslasha oluvchi tabiati bilan chambarchas bog‘liq. Har bir til birliklari o‘zaro almashinuv va o‘zgaruvchanlik asosida tashkil topadi. Bu esa paradigmalar mavjudligini shartli emas, balki zaruriy hodisa sifatida ko‘rishga olib keladi. Sintaktik paradigmalar tilning struktur qatlamida qurilmalarni tizimlashtirish, ma’no va vazifani ifoda qilishdagi imkoniyatlarni kengaytirish, muloqotda esa ekspressivlik va moslashuvchanlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Bu haqda atoqli olim M. Hakimov shunday yozgan edi: Xususiy emotsional munosabat, albatta, matn muallifining ruhiy holatidan kelib chiqadi va bevosita matn mazmunidan anglashilib turadi[17]. Bu fikr zamonaviy pragmatik, kognitiv va diskurs tahlil yondashuvlari nuqtayi nazaridan nihoyatda dolzarb va chuqur nazariy ahamiyatga ega. M. Hakimov fikrining asosiy nuqtasi, matn muallifining ichki dunyosi, ya’ni shaxsiy emotsional-psixologik holati matn mazmunida inkor etib bo‘lmas darajada aks etadi deganidir. Bu yondashuv tilshunoslikda nutqdagi ohangdorlik, semantik va pragmatik vositalar orqali subyektivlikni o‘rganish uchun muhim nazariy asos yaratadi. So‘zlovchining kayfiyati, ruhiy-emotsional fonlari, ichki hissiyotlari matn tuzilishiga, leksik tanlovga, matn uslubiga va hatto sintaktik qurilishga ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy lingvistikada bunday hissiy-ma’naviy qatlam implitsit pragmatik signallar, modal birliklar, baholovchi so‘zlar, hissiy-ta’sirchan vositalar orqali yuzaga chiqadi. Demak, matn muallifi o‘z shaxsiy hissiyotlarini nafaqat bevosita, balki bilvosita uslublar orqali ham bildiradi.

Mazmuniy grammatika til tizimida paradigmalarning mavjudligi grammatik moslashuvchanlikni, ya’ni so‘zlovchining niyatiga, eshituvchining ma’lumotni qabul qilishiga va muloqot sharoitiga mos ifodaviy shaklni tanlash imkoniyatini kafolatlaydi. Sintaktik paradigmalar nutq egasiga har bir holatda eng mos, eng maqbul, eng to‘g‘ri bo‘lgan tuzilish variantini tanlash imkonini beradi. Bu tanlov esa faqat til tizimining paradigmatik qatlamida, ya’ni variantlar tizimi mavjud bo‘lgandagina sodir bo‘ladi.

Sintaktik paradigma fenomeni, shu tarzda, tilning nafaqat grammatik tuzilishida, balki uning kommunikativ mexanizmlarida, semantik jarayonlarida va kognitiv asoslarida ham faol ishtirok etadi. Bu ishtirok paradigmaning til tizimidagi o‘rnini faqat sintaktik daraja bilan cheklamasdan, uni semantika, pragmatika va nutq rejalari bilan ham uzviy bog‘liq qilib qo‘yadi.

Dissertatsiyaning “**Sintaktik paradigmalarning semantik tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobida sintaktik paradigmalarning semantik tahlili amalga

[16] Костинский Ю.М. Вопросы синтаксической парадигматики // Вопросы языкознания, 1969. № 5. – С. 108.
[17] Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. … дисс. – Тошкент. 2001. – Б. 34-35.

oshirildi. Paradigmalar til tizimining nafaqat shakliy, balki mazmuniy birliklari sifatida o‘rganildi. Ushbu bobda sintaktik paradigmalarning ma’no tuzilishi, mazmunning ifodalanish usullari hamda turli tillardagi semantik tafovutlari ilmiy tahlil qilinib, qator nazariy xulosalar chiqarildi. Sintaktik paradigma tilshunoslikda nafaqat sistem va struktur birliklar yig‘indisi, balki ularni anglatuvchi ma’nolar tizimi sifatida ham e’tirof etilishi tadqiq qilingan. Paradigmalarni mazmuniy qurilma sifatida o‘rganish ularning shakliy o‘xshashligidan tashqari, biror umumiy ma’no markazi atrofida shakllangan variantlar tizimi sifatida tahlil qilishni anglatadi.

Bobning *“Paradigmalarning ma’no tuzilishi va semantik tahlili”* deb nomlangan birinchi faslida, sintaktik paradigma til birliklarining umumiy belgi asosida birlashishi bilan birga, markaziy ma’no atrofida shakllanishi alohida ta’kidlandi. Bu yondashuv F. de Sossyur, A.V. Bondarko, Y. Tojiyev singari olimlarning shakl va mazmun birligi haqidagi g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi. Paradigma a’zolari o‘zaro shakl jihatidan farqlansa-da, ularni yagona ma’no birlashtirib turadi. Masalan, *U keldi, Keldi u, Axir u keldi-ku* kabi gaplarda shakl almashadi, biroq asosiy mazmun – voqeaning sodir bo‘lgani – o‘zgarmaydi.

Mazkur bobda kognitiv va funksional lingvistika yondashuvlari asosida paradigma va semantika aloqalari yoritildi. Kognitiv tilshunoslik paradigmalarning inson tafakkuri va konseptual bilimlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Paradigmalar konseptual doiralarning sintaktik ifoda shakli bo‘lib, ular orqali inson ongidagi agent, harakat, obyekt va boshqa freym rollar tartibga solinadi. Shu nuqtayi nazardan, paradigmalarda markaziy ma’no (yadro), semantik periferiyalar (qo‘shimcha ma’no elementlari) va darajaviy qatlamlar mavjudligi isbotlandi.

Shuningdek, paradigmalar orqali mazmunning qanday ifodalanishi alohida tadqiq etildi. So‘z tartibi, urg‘u, zamon va modal vositalarning semantik yuklama orttirishdagi o‘rni aniqlashtirildi. Masalan, *U kelmoqda* va *Kelmoqda u* gaplari denotativ jihatdan bir xil, biroq informatsion markaz va kommunikativ urg‘u jihatidan farq qiladi. Bu holat sintaktik paradigmalar semantik differensiyani yuzaga chiqaruvchi vosita ekanini ko‘rsatadi.

Bobning *“Sintaktik paradigmalarda mazmunning ifodalanish usullari tadqiqi”* deb nomlangan ikkinchi faslida ingliz va o‘zbek tillaridagi sintaktik paradigmalar qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Ingliz tilidagi qat’iy SVO tartibi o‘zbek tilidagi erkin SOV tartibi bilan solishtirildi. Shuningdek, passiv konstruktsiyalarning uslubiy qo‘llanish doirasi, buyruq va savol paradigmalarining registrga ko‘ra farqlanishi, bog‘lovchi va diskurs markerlarning semantik vazifalari ko‘rib chiqildi. Masalan, ingliz tilidagi *She gave him the book* va *It was the book she gave him* variantlari bilan o‘zbek tilidagi *U menga kitob berdi, Kitobni menga u berdi, Berdi u menga kitob* gaplari o‘xshash konseptual ssenariyni ifodalaydi, ammo urg‘u va fokus turlicha ifodalanadi. Bularning barchasi bir xil freym asosida tuzilgan: harakat (berish), agent (u), predmet (kitob), benefaktor (men). Gapning sintaktik variantlari esa auditoriya e’tiborini qaysi freym roliga qaratishni belgilaydi.

Transformatsion sintaksis doirasida sintaktik paradigmalar ichidagi variantlik ham o‘rganildi. Bir fikr turli shaklda ifodalanishi, biroq semantik ekvivalentlikni saqlashi paradigma mohiyatini ko‘rsatadi. Masalan: *U kelgani yo‘q. – Kelmagan u – U-chi, kelmagan-ku!* gaplari bir paradigmaga kiradi, lekin ularning semantik-

emotsional tuslari farq qiladi. Shu orqali paradigmalar nutqiy faoliyatda ma’no nozikliklari qiyoslangan va semantik jihatdan tahlil qilingan.

Xususan, kognitiv lingvistika doirasida tildagi har bir semantik birlik – bu inson ongida mavjud bo‘lgan konseptual bilimlarning tilda ifodalanishidir. Sintaktik paradigmalar konseptual maydonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, *U uyga keldi, Uyga u keldi, Keldi u uyga* kabi gaplar ongimizdagi bir xil konsept: harakat, yo‘nalish, agent va manzil asosida shakllanadi. Bu qurilmalar bir xil kognitiv ssenariyni ifodalaydi, lekin ularning tartibi, urg‘u markazi, sintaktik tuzilishi bu ssenariyning turli jihatlarini, ya’ni informatsion markaz, e’tibor markazi yoki diskursdagi urg‘u munosabatini aks ettiradi.

Shuningdek, mazkur bobning *“Ingliz va o‘zbek tillardagi sintaktik paradigmalarning ma’no tafovuti”* deb atalgan uchinchi faslida prototip modeli bo‘yicha har bir kategoriya (shu jumladan, sintaktik) muayyan “markaziy” namunaga ega bo‘lishi, qolgan variantlar esa unga yaqinlik darajasiga ko‘ra baholanishi tadqiq qilingan. Sintaktik paradigmalarda ham bunday markaziy qurilma mavjud: eng sodda, odatiy, minimal ma’lumotli gap variantlari prototip hisoblanadi, qolgan variantlar esa unga qo‘shimcha semantik yoki uslubiy vazifa bergan holatda joylashadi.

Ingliz tilida SVO (Subject – Verb – Object) qat’iy tartib axborot markazini bir xil usulda ta’minlasa, o‘zbek tilida – SOV tartibdagi paradigmalar semantik markazni nimaga urg‘u berishiga qarab erkin o‘zgartiradi.

Inglizcha: She read the book last night.

O‘zbekcha: U kecha kechqurun kitobni o‘qidi. Kecha kechqurun u kitobni o‘qidi. Ikkinchi variantda *kecha* urg‘ulanib, vaqt nutqiy faoliyat jarayonida semantik jihatdan markazlashadi.

Passiv qurilma ingliz tilida voqeani amalga oshiruvchini berkitish yoki voqeani markazga qo‘yish uchun ishlatiladi. O‘zbek tilida esa bu vazifa ko‘proq ergash gap va yordamchi so‘zlar bilan ta’minlanadi.

Inglizcha: The window was broken by the storm.

O‘zbekcha: Deraza bo‘ron tomonidan sindirildi, yoki Bo‘ron derazani sindirib tashladi.

O‘zbek variantlari aktiv va passiv mayllar orqali semantik maydonni qanday o‘zgartirish mumkinligini ko‘rsatadi: birinchi misolda voqea *(deraza sinishi)* markazda, ikkinchisida esa agent *(bo‘ron)* diqqat markazida turadi.

Turli tillardagi sintaktik paradigmalar semantik tavsiflarining eng chuqur qatlamlarini bilishga tayangan yondashuv yordamida aniqlash mumkin.

Avvalo, iltimos-buyruq paradigmalarining rasmiy diapazonini solishtirish zarur. Ingliz tilida buyruq tamoyili doirasida ko‘pincha *please, could you, would you mind* kabi yumshatish uchun mo‘ljallangan tarkibiy elementlar qo‘llaniladi. Masalan,

Could you please send me the report?

Please send me the report.

Bu qurilmalarning birinchi varianti rasmiy-hurmatga yo‘g‘rilgan, ikkinchisi esa yetarlicha yumshoq bo‘lsa-da, nutqiy faoliyatga qarab norasmiyroq tuzilishi mumkin.

O‘zbek tilida esa buyruq va iltimos registri uchun “iltimos”, “marhamat” so‘zlari va shartli ergash gap (“agar imkon bo‘lsa”) ishlatiladi:

Iltimos, hisobotni menga jo‘natasizmi?

Agar imkoningiz bo‘lsa, hisobotni yuboring.

Ingliz tilida grammatik variant (imperativ va interrogativ-modal) o‘rtasida keskin ko‘rinish mavjud, o‘zbek tilida esa rasmiy va norasmiy buyruqlar odatda bir xil morfosintaktik qurilmaga ega bo‘lib, modallar yordamida farqlanadi.

Ikkinchi jihat, savol paradigmalarida e’tibor va urg‘u ifodalari beriladi. Ingliz tilida savol qurilmalari syntactic inversion va auxiliary insertion orqali amalga oshiriladi: *Did you go? Have you been?, What did you see?;* savollar nutqiy faoliyatga qarab ochiq yoki yopiq, nega-savol variantlari bilan farqlanadi.

O‘zbek tilida esa savol paradigmalarida qat’iy infinitive-sintaktik inversion o‘rniga so‘roq yuklamasi *-mi, -mikan* va shart ergash gaplari ishlatiladi:

Ketdingizmi?

Qayerga ketdingiz?

Bu yerda savol urg‘usi bosqichli semantik-pragmatik nozik farqlarni ifodalaydi: *-mi* neytral so‘rov, *qayerga* esa shubha, hayrat yonashuvini anglatadi. Ingliz tilida uslubiy urg‘u asosan intonatsiya va discourse marker *(I wonder)* orqali beriladi.

Bobda shuningdek, paradigmalarning matn va uslub bilan aloqasi ham yoritildi. Sintaktik variantlar rasmiy, ilmiy, publitsistik, badiiy va og‘zaki uslublarga moslashgan holda qo‘llanib, matnning semantik yaxlitligini ta’minlaydi. Masalan, rasmiy uslubda passiv qurilmalar ko‘proq qo‘llansa, badiiy uslubda emotsional-periferik vositalar keng qo‘llanadi.

Shunday qilib, ikkinchi bob natijalari sintaktik paradigmalarning semantik mohiyatini ochib berdi hamda mazmuniy grammatika va kognitiv lingvistika doiralarida muhim nazariy asoslarni taqdim etdi.

Uchinchi bob **“Sintaktik paradigmalarning pragmatik tahlili”** deb nomlanib, bobning birinchi faslida sintaktik paradigmalarning muloqotdagi nutqiy aktlari xususida fikr yuritiladi.

Mazmuniy grammatikada sintaktik paradigmalarning muloqotdagi nutqiy aktlari tahlili tadqiqiga kognitiv va pragmatik nuqtayi nazardan yondoshganimizda inson omili g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda mulohaza bildirganida E.A. Popova quyidagilarni alohida ta’kidlaydi: Bugungi kunda tilshunoslik fanining inson omilini hisobga olmasdan taraqqiy etgan o‘tgan davrini tasavvur etish qiyin. Bu davrda tilshunoslik inson omilidan mutlaqo xoli edi[18]. E.A. Popovaning tilshunoslikda inson omili haqidagi fikri zamonaviy lingvistikaning eng muhim an’analaridan biri, antropotsentrik paradigmaning shakllanishi va ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlanganini yorqin ifodalaydi. Tilni faqat shakl va tuzilish nuqtayi nazaridan emas, balki so‘zlovchi va tinglovchi ya’ni inson omilidan tashqariga chiqmasdan antropotsentrik nuqtayi nazaridan tahlil qilish kerakligini bildiradi. E.A. Popovaning to‘g‘ri qayd etishiga ko‘ra, avvalgi shakliy va strukturalistik yo‘nalishlar tilni subyektisiz, ya’ni faqat tuzilish sifatida qoliplarga solib

[18] Попова Е.А. Человек как основополагающая величина современного языкознания // Филологические науки, 2002, № 3. – С. 69.

o‘rganishga intilishgan. Bu esa tilning jamiyatdagi ijtimoiy vazifasini, individual hodisaligini, kommunikativ xususiyatlarini inkor etishga olib kelgan.

Bugun esa tilshunoslik insonni nutq faoliyatining manbayi sifatida o‘rganishni asosiy vazifalardan biri qilib olgan.

Mazmuniy sintaksisda sintaktik paradigmalarning kognitiv tahlili insonga iltimos, buyruq, kinoya kabi nutqiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlaydi.

Bu haqda fikr yuritganda taniqli olim N. Turniyozov quyidagilarni alohida ta’kidlaydi: “Gapning struktur sxemasi agar til sistemasida tayyor holda bo‘lganida edi, uning til birligi ekanligi hech qanday e’tirozga sabab bo‘la olmas edi. Vaholanki, tayyor holdagi sxemalar inson ongida yashaydi. Inson esa tashqi tilshunoslik omili, aniqrog‘i, pragmatik vosita sanaladi. To‘g‘ri, inson tilning egasidir va shu bois uning taraqqiyotiga ta’sir eta oladi. Biroq shunday bo‘lishiga qaramay, u til sistemasining ichida yashamaydi”[19]. N. Turniyozov “gapning struktur sxemasi”ning tayyor holatda til tizimida mavjud emasligi, balki inson ongida yashashi haqida gapirar ekan, u strukturalizm va generativ tilshunoslikdagi “ideal grammatik kompetensiya” tushunchasidan farqli yondashuvni ilgari suradi.

N. Turniyozovning bu qarashi tilni o‘rganishda faqat ichki tizim emas, balki antropotsentrik jihatdan yondashish kerakligini ta’kidlaydi. Shu sabab ham, gap strukturasi til tizimining tayyor birligi emas, balki inson tafakkurida tajriba asosida shakllanadigan modeldir.

Nutqiy aktlar bo‘yicha maxsus tadqiqot olib borgan taniqli olim M. Hakimov quyidagilarni yozadi: “Nutqiy aktning yashirin ifodasida so‘zlovchining ichki maqsadi, aytmoqchi bo‘lgan fikrining tinglovchi tomonidan qanday anglanishi va bu axborotni u qanday kayfiyat bilan qabul qilinishi nazarda tutiladi”[20]. Atoqli olim M. Hakimovning bu fikrlariga to‘liq qo‘shilgan holda quyidagi o‘z mulohazalarimizni bildiramiz. Nutqiy akt chiroyli amalga oshirilishi uchun so‘zlovchi nafaqat o‘z fikrini yetkazishi, balki u hali aytilmasdan oldin auditoriyada qanday qabul qilinishini ham nazarda tutishi kerak. Bu so‘zlovchining kelajakni bilishi yoki psixologik prognozi, ichki intuitsiyasi, ya’ni tinglovchining ehtimoliy reaksiyasini oldindan his qilish qobiliyatiga ham uzviy bog‘liq.

Bu holat pragmalingvistikada qabul qiluvchi mexanizm sifatida tushuntiriladi. So‘zlovchi nutqni tuzayotgan paytda birinchi galda uni eshitayotgan auditoriyadagi tinglovchining yoshi, bilimlari, qiziqishi, kayfiyati, madaniyati kabi omillarni inobatga olishi kerak bo‘ladi.

M. Hakimov ta’kidlayotgan yashirin ifoda, ko‘pincha to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmaydigan, ammo qo‘shimcha ma’nolarni, holatni anglatuvchi ifodadir. Bu turdagi ifoda evfemizmlar, kinoya, ironiya, yumor, majoziy ifoda, yashirin ma’no va implitsit ma’lumotlar turlari tarzida bo‘lishi mumkin.

Ya’ni, til faqat ifoda vositasi emas, balki “inson psixikasining ko‘zgusi” hamdir.

Antropotsentrik paradigmada insonning qanday o‘rin tutishini taniqli olim N. Mahmudov quyidagi fikrlar bilan ifodalaydi: “Antropotsentrik paradigmada inson asosiy o‘ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur

[19] Турниёзов Н.Қ. Ўзбек тили деривацион синтаксиси. – Тошкент, 2011. 47-б.
[20] Hakimov M. Nutqiy aktlar nazariyasi. – Farg‘ona, 2020. 24-bet.

hisoblanadi”[21]. Bu fikrlar bilan to‘liq qo‘shilish mumkin. Chunki, antropotsentrik yondashuvda til faqatgina ijtimoiy muloqot vositasi sifatida emas, balki insonning ongi, tafakkuri, ehtiyojlari va shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq fenomen sifatida qaraladi.

Nutqda har qanday gap yoki ibora buyurish, so‘rash, iltimos qilish, ogohlantirish, ma’qullash yoki rad etish kabi kommunikativ maqsad bilan ishlatiladi.

Nutqiy aktlar nazariyasiga ko‘ra, bu uch komponentdan iborat bo‘ladi:

1. *Lokutiv akt* – so‘zlash akti (grammatik jihatdan shakllangan nutqiy birlik).
2. *Illokutiv akt* – gap orqasidagi maqsad (buyruq, so‘rov, va’da va h.k.).
3. *Perlokutiv akt* – gapning tinglovchiga ko‘rsatadigan ta’siri (ishontirish, ranjitish, hayratga solish va b.).

Sintaktik paradigmalar aynan illokutsion aktlarni ifodalashda beqiyos vosita sifatida xizmat qiladi. Gapning tuzilishi, undagi urg‘u, modallik, so‘z tartibi, bo‘g‘in va sintaktik birlik tanlovi orqasida muallifning nutqiy niyati yashiringan bo‘ladi.

Bobning “*Pragmatik omillar va ularning sintaktik paradigmalar tuzilishiga ta’siri”* deb nomlangan ikkinchi faslida har ikkala tilda mazmuniy grammatika jihatdan pragmatik omillar va ularning sintaktik paradigmalar tuzilishiga ta’siri qiyosiy tahlil qilingan.

Pragmatik omillar nutq faoliyatining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan omillardir, nutq ishtirokchilarining ijtimoiy maqomi, muloqot aktining maqsadi, nutq vaziyatidagi holatlar va boshqalar til birliklarining strukturaviy va kommunikativ xususiyatlarini belgilaydi. Pragmatika semantika bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tilshunoslik bo‘limi bo‘lib, tinglovchining maqsadi va ma’noni maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida o‘rganadi va nima uchun o‘zgarishlar sodir bo‘lishini yoki nima uchun u o‘sha ma’noga bog‘liq ekanligini o‘rganadi.

Bu haqda Sh. Safarov “Semantika” nomli yirik monografiyasida quyidagilarni yozadi: Miyada kechadigan aqliy faoliyat natijasida olam haqida axborot to‘planadi, tartiblashtiriladi, qayta ishlanadi va foydalanishga tayyorlanadi. Bu jarayonlar asosan til ishtirokida kechadi[22]. Bir tomondan, bu kuzatish tilning kognitiv vazifasini ta’kidlashga o‘xshaydi, boshqa tomondan, til va inson tafakkurining organik birligini ajratib ko‘rsatadi. Bu nuqtayi nazar tilni axborotni uzatish vositasi sifatida talqin qilishga asoslangan. Shunday qilib, mazmuniy grammatikada til inson tafakkur faoliyatining tashqi ifoda vositasi sifatida emas, balki inson kognitiv faoliyatining asosiy omili sifatida qaraladi.

Til birliklari, paradigmalar sintaksisini shakllantirish bilan bir qatorda, pragmatik ma’noni ham yetkazadi. Mazmuniy grammatika orqali sintaksis paradigmalarni tahlil qilishda nafaqat grammatik me’yorlarni, balki suhbatdoshlarning ijtimoiy rollarini, muloqot maqsadini va madaniy fonni ham hisobga olish muhimdir.

Masalan, buyruq shaklida ifodalangan gapning rasmiy yoki norasmiy holatda qanday ifodalangani, undagi modal so‘zlar (“iltimos”, “kerak”, “mumkin”) yoki intonatsion uslub ham pragmatik omil sifatida baholanadi:

---

[21] Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab // O‘zbek tili va adabiyoti.–Toshkent, 2012. № 5.–B 6-7.
[22] Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент, 2013. – 66-б.

Norasmiy: *Shu yerda kutib tur.*

Rasmiy: *Iltimos, shu yerda kutib turing.*

Gap tuzilishi o‘xshash bo‘lgan, lekin pragmatik omillar (modal so‘zlar, intonatsiya va ijtimoiy xulq-atvor) uning funksionalligida kuchli o‘zgarish keltirib chiqaradigan holat.

Pragmatik omillarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. *Ijtimoiy omillar:* so‘zlovchi va tinglovchi orasidagi maqom, yosh, jins, ta’lim darajasi.

2. *Nutqiy faoliyat omillari:* muloqotning vaqti, joyi, mavzusi.

3. *Madaniy omillar:* tilga xos kommunikativ an’analar, etnik me’yorlar.

4. *Psixologik omillar:* so‘zlovchining holati, ishonch darajasi, hissiy fon.

5. *Diskursiv omillar:* matnning oldingi va keyingi qismlaridagi ma’lumotlar.

Shu o‘rinda aytish kerakki, sintaktik paradigmalar ushbu omillar bilan to‘qnashganda moslashuvchanlikni namoyon etadi.

Boshqacha qilib aytganda, har qanday berilgan kommunikativ vazifani sintaktik jihatdan amalga oshirishning bir qancha usullari mavjud va bu tanlov pragmatik omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bu sintaktik paradigmalarni o‘rganishda ularni grammatik mosliklar sifatida ko‘rib chiqish yetarli emasligini ko‘rsatadigan dalildir, aksincha, ular pragmatik moslashuv mantig‘i doirasida shakllantirilishi kerak.

Bobning *“Sintaktik paradigmalar bog‘lanishining pragmatik tahlili”* deb nomlangan uchinchi faslida har ikkala tildagi sintaktik paradigmalar bog‘lanishining semantik va pragmatik jihatlari qiyosiy tahlil qilingan.

Ta’kidlash joizki, Til tizimi mazmuniy grammatikada o‘zaro bog‘liq, boy va murakkab ko‘p qatlamli tuzilma bo‘lib, bu birliklar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar til tuzilishi va semantikasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Semiotika asoschilaridan bo‘lgan Ch. Morris semiotikani uchga bo‘ladi: 1) semantika – belgining borliq obyekti bilan munosabati haqidagi ta’limot; 2) sintaktika – belgining belgi bilan munosabati haqidagi ta’limot; 3) pragmatika – belgining so‘zlovchi bilan munosabati haqidagi ta’limot. Anglashiladiki, mazmuniy sintaksis ongda aks etgan obyektiv reallik elementlarini, ya’ni propozitsiyaning sintaktik qurilmalar orqali qanday ifodalanganini o‘rganadi[23]. Paradigmalararo bog‘lanish tushunchasi tilshunoslikda shu nuqtayi nazardan qaraladi. U sintaktik paradigmalar o‘rtasidagi semantik va pragmatik yo‘nalishdagi aloqadorlikni anglatadi. Bunda har bir paradigma mustaqil sintaktik qurilish bo‘lishi bilan birga, boshqa paradigmalarning tuzilishi va ma’no tizimi bilan muvofiqlikda yoki qarama-qarshilikda bo‘ladi.

Morfema leksik yoki grammatik bo‘lishi mumkin. U so‘zning shakllanishi, o‘zgarishi yoki bog‘lanishi uchun asos yaratadi. Morfema tushunchasining alohida grammatik birlik sifatida e’tirof etilishi struktur tilshunosligi asosida ilmiy mezonga aylangan.

Bundan tashqari, matn (diskurs) tushunchasi tilning eng katta grammatik birligi sifatida semantik grammatika, matn lingvistikasi, pragmalingvistika va kommunikativ o‘qitish yondashuvlari bilan bog‘liq. Masalan, gaplardan iborat matn

[23] Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент, 1995. – 6-б.

nafaqat grammatik birlik, balki semantik, pragmatik, kognitiv va kommunikativ birlik hamdir. Bu yerda grammatiklik nafaqat gaplarning bir-biriga bog‘lanishi, balki butun matnning izchil umumiy tuzilishi va mantiqiy izchilligini ham anglatadi.

Shu nuqtayi nazardan, olimlar XX asr oxiridan boshlab lingvistika morfologiya, sintaksis va matn grammatikasi o‘rtasidagi farqlarni qayta ko‘rib chiqmoqda. Boshqacha aytganda, til tizimi morfema-so‘z-gap zanjiri bilan cheklanmaydi, balki grammatik muammolar orasida diskurs gaplari o‘rtasidagi bog‘lanishlar, mantiqiy izchillik va matnlar ichidagi izchillik ham hisobga olinishi kerak.

Ta’kidlash lozimki, matn doirasida, qanday lingvistik maqomga egalidan qat’iy nazar, sintaktik paradigma a’zolari biri ikkinchisi bilan semantik va formal nuqtayi nazaridan uzviy bog‘langan bo‘ladi[24]. Sintaktik paradigma semantik modelning bir turi sifatida qaralishi kerak. Ushbu uslub bizga tilni butun matndan so‘zgacha va aksincha, matnlar yoki berilgan jumlaning qismlari o‘rtasida yagona tizim sifatida qarash imkonini beradi.

Avvalo, sintaktik paradigma ichidagi a’zolar qanday qaralmasin, ular har doim matn doirasida (umuman yoki har qanday aniq matnda) shakl va ma’no masalasi sifatida bir-biri bilan aloqada bo‘lishlari kerak. Faqat semantik talqinlar va paradigmalarni solishtirish orqali bu nuqta, ya’ni paradigmalararo bog‘lanish munosabatlar masalasi juda aniq bo‘ladi.

Masalan, buyruq gap paradigmasi va so‘roq gaplar paradigmasi o‘rtasidagi semantik farq qanday kommunikativ vaziyat mavjudligiga qarab o‘zini namoyon qiladi. Yana, shartli gaplar, ehtimollikni ifodalovchi gaplar hamda aniqlovchi va aniqlovchi bo‘lmagan sintaktik birliklar o‘rtasida aniq semantik bog‘lanishlar mavjud bo‘lib, ular tillarning mantiqiy ierarxiyasini tashkil qiladi.

Darvoza ochiq edi. Har gal bemalol kirib boraveradigan odam, bugun taqillatgani ham jur’at qilmadi – turaverdi. Xayriyat, hovlida Xadichaning o‘zi ko‘rindi, ajablandi, qo‘lidagi cho‘ltoq supurgini tashlashni ham unutib tashqari chiqdi. Arazi tarqamagan chog‘i: salom bermadi, xuddi begonaday, ko‘zlari yerda, og‘zini ro‘mol bilan to‘sdi… Polvon achchiqlanmadi, qaytaga – xo‘rligi keldi, xotini o‘ragan bir so‘mlik gardi ro‘moli uning kir unnagan ko‘ylagi sabab bo‘ldimi yoki qo‘lidagi cho‘ltoq supurgimi, ishqilib, unga betlab qaray olmadi, uyaldi, o‘zini nomard, noinsof sezdi (Murod Muhammad Do‘st, Dashtu dalalarda (hikoya) 12-bet).

Ko‘rinadiki, berilgan misollarning birinchisida matn to‘lig‘icha mustaqil gaplar paradigmasidan tashkil topgan. Unda birorta ham murakkab sintaktik qurilma qatnashgani yo‘q. Ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi va beshinchi misollarda esa ikkita va undan ortiq mustaqil gap va murakkab sintaktik qurilma paradigmalarini kuzatamiz. Bu o‘rinda sintaktik paradigma tushunchasini keng ma’noda tushunamiz. Shu bois ayni paytda paradigma a’zolarining mazmuniy mushtarakligi emas, balki shakliy grammatik maqomi nazarda tutiladi.

Boshqacha aytganda, matn qismlari yig‘iladigan grammatik bir xillik paradigmalarni yaratishda asosiy omil deb atash mumkin.

[24] Реферовская Е.А. Коммуникативная структура текста. – Л.: Наука, 1989. – С.12.

Shuningdek, ijobiy nuqtayi nazardan kommunikativ ehtiyojlardan kelib chiqib, turli paradigmalar o‘rtasidagi bog‘liq masalalar juda muhimdir. Har bir kommunikativ vaziyatda fikrlarni tabiiy va mos ravishda yetkazish uchun bir paradigmadan boshqasiga o‘tish zarur.

Masalan, izohlayotgan gapdan sabab ergash gapga, sabab ergash gapdan shart ergash gapga o‘tish – bu muloqotda sintaktik munosabatlarni moslashtirishni talab qiladi. Bu grammatik tabiatdan tashqari, semantik-pragmatik qismga ega bo‘lgan paradigmatik bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi.

Haqiqatdan ham, paradigmalararo bog‘lanish, shuningdek, diskurs sathida ham faol ishlaydi. Diskursning har bir segmentida nutqiy faoliyat asosida muayyan sintaktik qurilmalar tanlanadi va ularning o‘zaro ketma-ketligi ma’no uzluksizligini ta’minlaydi. Bu holat ingliz va o‘zbek tillarining yozma va og‘zaki shakllarida yaqqol kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganimizda, paradigmalararo bog‘lanish semantik jihatdan mustahkam asosga ega bo‘lib, til tizimidagi izchillik va tushunarlilikni ta’minlovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Bundan tashqari, nutq faoliyatlari o‘rtasida semantik moslik, qarama-qarshilik, to‘ldiruvchanlik, moslashuv yoki paradigmalar o‘rtasidagi shakl asosida o‘rnatilgan sintaktik munosabatlar muloqotning umumiy izchilligi va samaradorligini ta’minlashda tengsizdir.

XULOSA

1. Ushbu ilmiy tadqiqotda mazmuniy grammatika doirasida sintaktik paradigmalar masalasi nazariy, semantik va pragmatik jihatdan o‘rganilgan. Semantik bilim nazariyasi doirasida, sintaksis paradigmalarining nazariya va amaliyot nuqtayi nazaridan hamda semantik nuqtayi nazaridan vazifasini keng qamrovli o‘rganishni amalga oshiradi. Til tizimida, sintaktik tuzilma va mazmun ifodasi hamda muloqotdagi kommunikativ jarayonda sintaksis paradigmalarining roli aniqlanadi.

2. Mazmuniy grammatika g‘oyasi zamonaviy tilshunoslikdagi yangicha qarash bo‘lib, uyg‘unlashtirilgan mezonlar va sintaktik tuzilmani ko‘rinadigan vositalar orqali ifodalash imkonini beradi. Ushbu nuqtayi nazar til birliklarining shakliy sifatlarini emas, balki ularning mazmuniy jihatdan ham vazifalarini kuzatadi.

3. Sintaktik paradigma kategoriyasi o‘zining noyob ilmiy tushunchasini shakllantirgan. Paradigmatik tizimda gap qurilishi orasidagi morfosintaksis va semantik munosabatlarga hamda ularning o‘zgaruvchilar yoki alternativalar sifatidagi tabiatiga aniqlik kiritadi. Shuningdek, parallel paradigmatik tuzilmalar orasida ushbu model transpozitsiya, konversiya va sinonimni ishlab chiqadi.

4. Sintaktik modellarda joylashgan denotatsion, konnotatsion va presuppozitsion ma’no qatlamlarining har biri tasniflangan. Tadqiqot bir jumla ichida turli modellarning semantik farqini ko‘rsatib beradigan paradigma o‘zgarishlarining tug‘ilishini tushuntirib bergan.

5. Qardosh bo‘lmagan ingliz va o‘zbek tillari misolidagi sintaktik paradigmalar orasidagi semantik farqlar, ularning kommunikativ yo‘nalishi va ularga jamiyat hamda madaniy omillarning ta’siri o‘rganilgan. Bu tilning kontrastiv tadqiqotlariga yangi yo‘nalishlar beradi.

6. Pragmatik nuqtayi nazardan, ushbu tadqiqot sintaktik paradigmalar bilan bog‘liq nutq aktlarini, ularning shakli matn yoki kommunikativ maqsadga qarab qanday o‘zgarishini va har birining qanday ifodaviy, deklarativ yoki amaliy vazifalarni olib borishini o‘rgangan. Xususan, bitta matnda uslubiy uzluksizlikning paradigmalararo bog‘lanish munosabatlaridan kelib chiqishi ko‘rsatilgan.

7. Ingliz va o‘zbek tillarida sintaktik paradigmalar qanday qurilganligi, ular o‘rtasida farq borligi, garchi ular bir xil semantik mazmunga ega bo‘lsa-da, lekin nutq vaziyatlarining milliy-madaniy sabablari, kommunikativ maqsadlar uchun pragmatik jihatdan qo‘llanilganda farqlarni yuzaga keltiradi. Ingliz tilida grammatika mantiqiy izchillik va axborot soddaligi tamoyillariga asoslangan bo‘lsa, o‘zbek tilida nutqning boy ifodaviy qobiliyati, matnga moslashuv va gaplarning kommunikativ samaradorligida aks etadi.

8. Mazmuniy grammatik yondashuv asosida grammatik modellashtirishdan misol olib, uning semantik va pragmatik komponentlari konfiguratsiyasiga qarab turli xil sintaktik paradigmalar ajratilib va taqqoslovchi tasnif tuziladi. Bu til tizimida shakl va mazmun o‘rtasidagi moslikni kengroq o‘rganish, shuningdek, sintaktik vositalarning kommunikatsiyada funksional jihatdan ishlashini ko‘rib chiqish imkonini beradi.

9. Tadqiqotda erishilgan empirik lingvistik natijalar nafaqat nazariy tilshunoslik uchun muhim, balki tarjima, kompyuter lingvistikasi, nutq madaniyati va chet tilini o‘qitish metodikasi uchun ham amaliy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, sintaktik paradigmalarni mazmuniy grammatika modellariga ko‘ra tahlil qilish lingvopragmatika va kognitiv-lingvistikaning barcha turli bo‘limlarini yanada chuqurroq o‘rganish uchun jiddiy ilmiy asos yaratadi va bu korpus lingvistikasi doirasidagi yo‘nalishlarni topish uchun ham juda muhim.

10. Mazmuniy grammatika doirasida predikativlik, modallik, vaqt-makon ko‘rsatkichlari kabi semantik komponentlar paradigmalarning asosiy mazmun markazini tashkil etadi. Biroq, pragmatik tekshiruv shuni ko‘rsatadiki, sintaktik paradigmalar ikki til o‘rtasida kommunikativ niyat, suhbatdosh maqomi va nutqiy faoliyat kabi xususiyatlarga ko‘ra sezilarli darajada o‘zgaradi. Sintaktik paradigmalar tizimi milliy-madaniy mentalitet va til va madaniyatga oid omillar ta’siri ostida shakllanadi, shuning uchun tarjimada ekvivalentlik masalasi yanada dolzarb bo‘ladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

ТАШКЕНТСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ КИМЁ

ОРЗИБЕКОВ ФАЗИЛБЕК УЛУГБЕКОВИЧ

СЕМАНТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СИНТАКСИЧЕСКИХ ПАРАДИГМ В СОДЕРЖАТЕЛЬНОЙ ГРАММАТИКЕ
(на материале английского и узбекского языков)

10.00.13 – Сравнительное и сопоставительное языкознание

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ наукам

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2025.4.PhD/Fil6837.

Диссертация выполнена в Ташкентском международном университете Кимё.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и на информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Туробов Абдураим Маликович** доктор филологических наук (DSc), профессор
Официальные оппоненты:	**Хайруллаев Хуршиджон Зайниевич** доктор филологических наук (DSc), профессор
	Хушмуродова Шахноза Шайманкуловна доктор филологических наук (DSc), профессор
Ведущая организация:	**Джизакский государственный педагогический университет имени Абдуллы Кадыри**

Защита диссертации состоится «11» декабря 2026 года в 10[00] часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарин, д. 43. Тел:(99866) 234-29-36; e–mail: info@samdchti.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за №67342 Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарин, д. 43. Тел:(99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «20» ноября 2026 г.
Реестр протокола рассылки №74 от «20» ноября 2026 г.

Б.А. Холиков
Председатель научного совета по присуждению учёной степени, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов
Ученый секретарь научного совета по присуждению учёной степени, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Д.А. Киселёв
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёной степени, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой лингвистике круг исследований, посвящённых синтаксису, с каждым днём расширяется, а изучение их семантических и прагматических свойств рассматривается как одно из актуальных научных направлений. Глубокий анализ системной структуры языковых единиц на основе семиотического подхода, определение их роли в выполнении коммуникативных задач в речевой деятельности остаются одной из основных проблем современных лингвистических исследований. В частности, изучение синтаксических парадигм в содержательной грамматике создаёт возможность раскрыть связи между единицами языковой системы, а также их семантические и прагматические свойства. Актуальность темы диссертации связана с семантическим и прагматическим изучением синтаксических парадигм, доминирующим в современной лингвистике. Кроме того, взаимосвязь когнитивного, функционального и дискурсивного подходов определяет перспективы дальнейшего развития данной сферы. Настоящая работа посвящена семантическому и прагматическому анализу синтаксических парадигм в содержательной грамматике.

В мировой лингвистике парадигматические отношения языковых единиц проявляются посредством взаимной замены и семантических изменений в процессе речи и считаются одним из важных средств выражения языковой системы. Важно отметить, что структура, семантика и прагматика синтаксических парадигм английского языка, а также теоретические основы содержательной грамматики, на сегодняшний день стали одной из самых актуальных областей языкознания. Необходимость объединения теоретических основ содержательной грамматики, трёхкомпонентной структуры синтаксических парадигм, их семантических средств выражения, а также прагматических условий в единую аналитическую систему обусловила потребность в исследовании теории содержательной грамматики.

Английский язык широко распространён как язык глобального общения, и сопоставительное изучение с ним грамматической системы узбекского языка является важным фактором не только для контрастивной лингвистики, но и для теории перевода, компьютерной лингвистики и методики преподавания языков. То, что в данной диссертации именно с точки зрения содержательной грамматики специально не исследовались семантические и прагматические особенности синтаксических парадигм на примере двух языков (английского и узбекского), а также сложные взаимосвязи между языковой системой и речью, определяет актуальность выбранной темы. То, что внимание к высшему образованию стало одним из приоритетных направлений государственной политики, отдельно подчёркнуто в Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на 2017-2021 годы как «совершенствование системы образования, расширение возможностей получения качественных образовательных услуг»[25]. Вопрос семантического и

[25] Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – B. 39.

прагматического исследования синтаксических парадигм, доминирующих в современной лингвистике, также относится к числу актуальных проблем, ожидающих своего решения. То, что семантические и прагматические аспекты синтаксических парадигм в содержательной грамматике специально не изучались, определяет актуальность темы.

Настоящее исследование в определённой степени служит выполнению задач, обозначенных в Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», в Указе № ПФ-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», в постановлениях № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», № ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», № ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по выводу деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый этап», а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением I «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства» развития науки и информационных технологий республики.

Уровень изученности проблемы. Самые ранние идеи, лёгшие в основу содержательной грамматики, восходят к XIX веку. Взгляд В. фон Гумбольдта, трактующего язык как «энергию» – динамический процесс, неразрывно связанный с человеческим мышлением и мировоззрением, – создал философскую основу содержательного подхода, однако данный взгляд не был напрямую связан с конкретными синтаксическими структурами[26]. Позднее теория «грамматики зависимостей» Л. Теньера разработала важный методологический путь изучения семантической основы синтаксических единиц, однако не выделила вопрос парадигматической замены в качестве основного объекта исследования. Хотя данный подход сформировал первоначальные теоретические основы коммуникативно-содержательного членения, он не поднялся до уровня системы парадигм. Л. Теньер уделял особое внимание анализу семантической основы синтаксических единиц[27]. В

[26] Humboldt W. On Language: The Diversity of Human Language-Structure and its Influence on the Mental Development of Mankind (Texts in German Philosophy) New York : Cambridge University Press. 1988. – P.296.; Гумбольдт В. фон Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – 397с.

[27] Теньер Л. Основы структурного синтаксиса**.** – Москва, Прогресс, 1988. – 656 с.; Степанов Ю.С. Основы языкознания. – Москва: Просвещение, 1966. – 272 с.; Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. 2-е издание, исправленное. «Языки русской культуры». – Москва 1999. 905 с.; Бабайцева В.В., Инфантова Г.Г. Николина Н.А., Печникова В.С., Чеснокова Л. Д. Современный русский язык. Теория. Анализ языковых единиц. В двух частях. Часть II: Морфология. Синтаксис**.** Москва**:** Академия**,** 2006 – 624 с.

рамках этого подхода грамматические структуры рассматриваются как связанные между собой посредством семантических отношений, подчинённых друг другу. Кроме того, немецкий языковед Г. фон Габеленц в своей работе «Die Sprachwissenschaft, ihre Aufgaben, Methoden und bisherigen Ergebnisse» (1891) выдвинул понятия «психологического субъекта» и «психологического предиката», заложив тем самым одну из самых ранних теоретических основ содержательно-коммуникативного членения в составе предложения[28].

Вопросы содержательной грамматики в мировой лингвистике Ю.С. Степанов раскрыл через призму соотнесённости концептуальных структур с грамматическими формами. В работах Д.С. Уорта, З. Харриса, Н. Хомского, Р. Зимека, Б. Грабе, Ю.С. Кубряковой, Н.Ю. Шведовой, Ю.М. Костинского и И.П. Распопова понятие синтаксической парадигмы освещалось с различных – структурной, трансформационной, генеративной, функциональной – точек зрения. Т.В. Хребтова же выдвинула «семантически обоснованную классификацию» грамматики. Сильной стороной данных исследований является грамматико-структурное описание парадигмы, а основным их ограничением – то, что семантический центр парадигмы и прагматические критерии замены не были представлены как целостная система[29]. В частности, Ю.С. Степанов раскрыл, каким образом концептуальные структуры в системе языка соотносятся с грамматическими формами. Т.В. Хребтова же, выдвинув «семантически обоснованную классификацию» грамматики, предложила классифицировать предложения и словосочетания на основе их семантических моделей.

Идеи содержательной грамматики нашли своё отражение и в узбекском языкознании. В последние годы такие учёные, как Н. Махмудов, А. Нурмонов, А. Мамаджонов, Х. Неъматов, Р. Сайфуллаева, М. Курбанова, А. Ахмедов, С. Солиходжаева, Д. Лутфуллаева, Ф. Йулдошев, Г. Тоирова и другие, апробировали содержательно-коммуникативный подход на материале узбекского языка. Данные исследования ценны с точки зрения раскрытия синтактико-семантических особенностей узбекского языка, однако они, оставаясь в рамках узбекского языка, не ставили перед собой задачу сопоставительно-содержательного анализа с английским языком. Данные работы определяют следующий научный пробел: методологические

---

[28] Gabelentz G. von der. Die Sprachwissenschaft, ihre Aufgaben, Methoden und bisherigen Ergebnisse (1891). – Berlin: Language Science Press, 2016 – P. 601.

[29] Worth D.S. The role of transformations in the definition of syntagmas in Russian and other Slavic languages. V International congress of slavists. – Sofia, 1963. – P. 361-383.; Харрис З. Совместная встречаемость и трансформация в языковой структуре // Новое в лингвистике, вып.2. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1962. 685 с. (528-637); Хомский Н. Синтаксические структуры. – М., 1962. – 136 с.; Зимек Р. Семантический аспект синтаксической трансформации // Ceskoslovenska rusistika, XI, 1966, No. 2 (из материала интернета). Распопов И.П. Несколько замечаний о синтаксической парадигматике // Вопросы языкознания, 1969, No 4. – С. 92-100. Костинский Ю.М. Вопросы синтаксической парадигматики // Вопросы языкознания, 1969, No 5. – С. 106-114. Грабе В. Общее значение синтаксической конструкции и трансформация // Ceskoslovenska rusistika, XI, 1996, No 2 (из материала интернета). Кубрякова Е.С. Языковое сознание и сознание через язык: парадигмы исследования. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С.560.; Шведова Н.Ю. Парадигматика простого предложения в современном русском языке // Русский язык. Грамматические исследования. – М.: 1967. – С.145.

достижения теории содержательной грамматики, синтаксической парадигматики и теории речевых актов не были объединены в рамках единой сопоставительной аналитической системы; семантический центр, средства выражения и прагматические критерии замены синтаксических парадигм английского и узбекского языков системно не исследовались. Настоящая диссертация направлена именно на восполнение этого научного пробела. В частности, А. Бердиалиев предложил семантико-парадигматический анализ[30] при изучении парадигматического и синтагматического значения речевых единиц[31], Н. Турниёзов - деривационных аспектов речевых единиц[32], М. Хакимов - прагматической значимости речевых единиц[33], тогда как Ш. Сафаров выдвинул исследование средств, определяющих когнитивный характер языка, в рамках грамматики[34].

Связь темы исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, в котором выполнена диссертация. Исследование выполнено в соответствии с планом научно-исследовательских работ Ташкентского международного университета Кимё в рамках направления «Деривационные закономерности развития языка».

Цель исследования заключается в целостном системном исследовании, с позиций содержательной грамматики, семантического центра синтаксических парадигм, механизмов выражения содержания и условий прагматической реализации на материале английского и узбекского языков, а также в сопоставительно-типологическом обосновании общих и различительных черт между этими двумя языками.

Задачи исследования заключаются в следующем:

проанализировать этапы становления и развития теории содержательной грамматики, а также теоретически обосновать статус синтаксической парадигмы как грамматической единицы;

выявить на материале английского и узбекского языков трёхкомпонентную структуру синтаксической парадигмы – ядро, варианты и критерии замены, – а также разработать их классификацию;

проанализировать в сопоставлении английского и узбекского языков семантический центр синтаксических парадигм, а также выражение

---

[30] Berdialiyev A. O‘zbek tili sintaktik paradigmatikasi asoslari. – Toshkent, 1991. – 47 b.; Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент, 1995. – 228 б.; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 90 б.; Турниёзов Н. Назарий грамматикадан очерклар. – Самарқанд, 1998. – 48 б.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент.:ЎзМЭ, 2008, – 286 б.; Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоцио-прагматик таҳлил асослари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд. 2007. – 40 б. Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. – Тошкент, 1999, 25-б.; Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент, 1992, 292 бетлар.; Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. ДДА. Тошкент, 2001. – 39 б.; Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Монография. – Тошкент. 2013 йил, 176-бет.; Lutfullayeva D. Gapning semantik-sintaktik qurilish qolipi va propozitiv strukturasi o‘rtasidagi munosabat: Filol. fan. dok. …dissertatsiyasi. – Toshkent. 2005. – 269 b.; Мамажонов А. Текст лингвистикаси. – Тошкент: ТДПИ., 1989. – 125 б.

[31] Бердиалиев А. Ўзбек тили синтактик қурилиши асосининг парадигматик тизими. – Хўжанд, 2019. – 80 б.

[32] Турниёзов Н.Қ. Ўзбек тили деривацион синтаксисига кириш. – Самарқанд: 1990. – 60 б.

[33] Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Монография. – Тошкент, 2013. 176 б.

[34] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006. – 92 б.

содержания посредством порядка слов, ударения, времени и модальных средств;

